

**OLIY TA'LIM OLIISH HUQUQINI TA'MINLASHDA FUQAROLARGA
BERILADIGAN IJTIMOYIY IMTIYOZLAR: O'ZBEKISTON VA XORIJIY
DAVLATLAR TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI**

Yusufjonov Asadbek Dadabek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti.

e-mail: yusufjonov.asadbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558991>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolarga oliy ta'lim olish huquqini ta'minlash jarayonida beriladigan ijtimoiy imtiyozlarning konstitutsiyaviy va normativ-huquqiy asoslari tahlil etiladi. O'zbekiston Respublikasi tajribasi, shuningdek, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlarining ilg'or tajribasi asosida bu imtiyozlarning huquqiy tabiatini, subyektlar doirasini, ularni taqdim etish mexanizmlarini va amaliy natijalarini qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganadi. Tadqiqotda oliy ta'lim uchun teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va konstitutsiyaviy kafolatlarni real hayotga tatbiq etishdagi muammo va yechimlarga alohida e'tibor qaratiladi. Tahlil natijasida oliy ta'limda ijtimoiy imtiyozlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi hamda ularning huquqiy asoslari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqaro tajriba, qabul jarayoni, ijtimoiy imtiyozlar, konstitutsiyaviy kafolatlar, huquqiy mexanizmlar, teng imkoniyatlar, qiyosiy tahlil.

**СОЦИАЛЬНЫЕ ЛЬГОТЫ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫЕ ГРАЖДАНАМ ПРИ
ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВА НА ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ
АНАЛИЗ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

Аннотация. В данной статье анализируются конституционные и нормативно-правовые основы социальных льгот, предоставляемых гражданам в процессе обеспечения права на высшее образование. На основе опыта Республики Узбекистан, а также передовой практики Германии, Российской Федерации, США и Великобритании проводится сравнительно-правовое изучение правовой природы этих льгот, круга субъектов, механизмов их предоставления и практических результатов. В исследовании особое внимание уделяется проблемам и решениям в создании равных возможностей для высшего образования, обеспечении социальной справедливости и реализации конституционных гарантий в реальной жизни. В результате анализа будут разработаны предложения, направленные на повышение эффективности социальных льгот в высшем образовании, и исследованы их правовые основы.

Ключевые слова: высшее образование, международный опыт, процесс поступления, социальные льготы, конституционные гарантии, правовые механизмы, равные возможности, сравнительный анализ.

**PROVISION OF SOCIAL BENEFITS TO CITIZENS IN ENSURING THE RIGHT TO
HIGHER EDUCATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF
UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES**

Abstract. This article analyzes the constitutional and normative-legal foundations of providing social benefits to citizens in the process of ensuring their right to higher education. The study examines the legal nature of these benefits, the categories of eligible subjects, the mechanisms for their provision, and their practical outcomes through a comparative legal analysis of the experience of the Republic of Uzbekistan alongside that of Germany, the Russian Federation, USA and UK. Particular attention is given to issues of ensuring equal opportunities

in access to higher education, promoting social justice, and effectively implementing constitutional guarantees in real life. Based on the analysis, the article offers recommendations aimed at increasing the effectiveness of social benefits in higher education and explores the legal underpinnings of their application.

Keywords: higher education, international experience, admission process, social benefits, constitutional guarantees, legal mechanisms, equal opportunities, comparative analysis.

KIRISH. Bugungi kunda huquqiy-demokratik davlatlarda oliy ta'limga kirishda ijtimoiy imtiyozlarning joriy etilishi fuqarolarning ta'lim olish huquqini ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Bunday imtiyozlar, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oliy ta'limga kirishdagi real imkoniyatlarini kengaytirish, ularning inklyuziv ishtirokini ta'minlash va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Huquqiy imtiyozlarning mohiyatini chuqur anglash uchun, avvalo, "imtiyoz" atamasining huquqiy va ilmiy asoslarini aniqlab olish muhim. "Imtiyoz" (lotincha privilegium) so'zi "privus" (alohida) va "lex" (qonun) iboralaridan kelib chiqib, "ayrim shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar uchun maxsus qonuniy imkoniyat" degan ma'noni anglatadi. Huquqshunoslikda esa imtiyoz – bu umumiy huquqiy tartibdan chekinish asosida, ijtimoiy holati yoki xizmat aloqasi bilan ajralib turuvchi fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar berilishini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizm hisoblanadi. Bu jihat uni ijtimoiy adolat va teng huquqlilik prinsiplarini amalda ro'yobga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon qiladi **【1】**.

Oliy ta'limga kirish imkoniyatlarining barchaga teng bo'lishi, bu tenglik esa nafaqat normativ-huquqiy, balki amaliy kafolatlar bilan ta'minlanishi demokratik jamiyat uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy imtiyozlar oliy ta'lim tizimining inklyuzivlik, adolat va barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishda muayyan yutuqlarga erishilgan.

Jumladan, Konstitutsiyada ta'lim olish huquqi kafolatlangan, abituriyentlar uchun ijtimoiy mezonlar asosida turli imtiyozlar shakllantirilgan, hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga davlat granti asosida ajratiladigan alohida kvotalar mavjud. Shunga qaramay, amaldagi imtiyozlar institutining tartibga solinmaganligi, normativ hujjatlardagi tarqoqlik, shaffof baholash mezonlarining sustligi ushbu tizimni xorijiy ilg'or tajriba asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga oid ijtimoiy imtiyozlar tizimi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq fuqarolarga davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ta'lim olish huquqini kafolatlaydi **【2】**. Ushbu norma oliy ta'limga kirishdagi teng imkoniyat tamoyilining amaliy ifodasidir. Bunda "tanlov asosida" iborasi, bir tomondan, akademik yutuqlarga asoslangan yondashuvni bildirsa, boshqa tomondan, imtiyozga ega ijtimoiy toifalar uchun alohida tartib va kvotalarni huquqiy asosda belgilashga imkon yaratadi. Demak, konstitutsiyaviy huquq sifatida davlat hisobidan ta'lim olish huquqi nafaqat umumiy asosda, balki ijtimoiy imtiyozlar tizimi orqali ham ro'yobga chiqarilishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yilishi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shartligi belgilab qo'yilgan **【3】**. Bu me'yor, o'z navbatida, ijtimoiy imtiyozlarning adolatli, huquqiy va qonuniy asosda joriy etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim olish uchun taqdim etiladigan imtiyozlar ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va konstitutsiyaviy kafolatlarni amalda ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasida mazkur institut tizimli tarzda shakllanayotgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilish jarayonida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarini qo'llab-quvvatlash, hududlararo tengsizliklarni yumshatish hamda iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish maqsadida turli shakldagi imtiyozlar amaliyotga joriy etilgan.

Ayni paytda yurtimizda oliy ta'limga kirishdagi imtiyozlar Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, ular orqali 40 dan ortiq turdagi imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, hududlararo tengsizlikni kamaytirish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish hamda ta'limga bo'lgan umumiy kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Biroq imtiyozlarning ko'pligi ularni tartibga solish, baholash va shaffof qo'llashda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Shundan kelib chiqib, mavjud imtiyozlar institutini institutsional va huquqiy jihatdan yaxlitlashtirish, raqamlashtirish hamda ehtiyojga yo'naltirilgan mexanizmlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi: Germaniya Federativ Respublikasida oliy ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, unga kirishda teng imkoniyatlarni ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Germaniya Federativ Respublikasining Konstitutsiyasida ya'ni asosiy qonunida har bir shaxsga kasb tanlash va uni egallash erkinligi kafolatlangan bo'lsa, 3-moddada esa barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi va hech kimni jinsi, tili, dini, millati yoki kelib chiqishiga ko'ra kamsitmaslik belgilab qo'yilgan [4]. Ushbu normalar oliy ta'limga kirishda ijtimoiy adolat va diskriminatsiyadan xoli yondashuvni huquqiy jihatdan asoslaydi.

Germaniyada oliy ta'lim, ayniqsa davlat universitetlarida, asosan bepul taqdim etiladi.

Talabalar faqat "semester to'lovi" (Semesterbeitrag) deb ataluvchi ma'muriy xizmat xarajatlarini to'laydilar. Oliy ta'limga kirish esa nafaqat bepul asosda amalga oshiriladi, balki ehtiyojmand toifalar uchun ijtimoiy imtiyozlar orqali qo'shimcha qo'llab-quvvatlanadi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari, yolg'iz ota-onalarning bolalari, nogironligi bo'lganlar va doimiy yashovchi chet ellik talabalar uchun moliyaviy yordam BAföG — Ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi federal qonun asosida ajratiladi. Ushbu yordam yarim grant va yarim foizsiz kredit shaklida amalga oshiriladi [5].

Bu imtiyozlar, avvalo, BAföG (Bundesausbildungsförderungsgesetz) — Ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi federal qonun asosida ta'minlanadi. Ushbu qonunga ko'ra, Germaniyada oliy ta'lim oluvchi quyidagi toifadagi talabalar imtiyozli moliyaviy yordam olish huquqiga ega: kam ta'minlangan oilalardan chiqqan talabalar, yolg'iz ota yoki ona tomonidan tarbiyalanayotganlar, nogironligi bo'lgan talabalar, Germaniyada doimiy yashovchi chet ellik talabalar (muayyan shartlar asosida).

Moliyaviy yordam 50% grant va 50% foizsiz kredit ko'rinishida ajratiladi. Bu yordamning o'ziga xos jihati shundaki, kredit qismi mezonlarga qarab to'liq yoki qisman kechirilishi ham mumkin. Shuningdek, yordam miqdori talabchanlik, yashash xarajatlari va oila daromadiga qarab aniqlanadi. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanadi va har yili Ta'lim va tadqiqotlar vazirligi tomonidan tartibga solinadi [6].

Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari oliy ta'lim tizimida ijtimoiy imtiyozlar masalasida yondashuv boshqa rivojlangan davlatlardan farq qiladi.

Xususan, Buyuk Britaniyada oliy ta'lim muassasalari talabalarni qabul qilish va saralash masalalarini o'z akademik siyosati asosida mustaqil ravishda hal qiladi, ya'ni davlat tomonidan qat'iy standartlar bilan cheklab qo'yilmaydi [8]. Fuqarolarning ijtimoiy toifasiga emas, balki abituriyentlarning akademik salohiyati va shaxsiy yutuqlariga asoslangan tanlov prinsipi ustuvorlik qiladi.

AQShda ham universitetga kirish jarayoni abituriyentning fuqaroligi yoki rezidentlik maqomidan qat'i nazar, ularning akademik malakasi, ACT/SAT test natijalari, ijtimoiy faolligi va boshqa individual ko'rsatkichlariga asoslanadi [9]. Mamlakatda yagona davlat ta'lim standarti mavjud emas va oliy o'quv yurtlarining faoliyatiga federal hukumat tomonidan minimal darajada aralashiladi, bu esa ularning o'zini o'zi boshqaruv tamoyiliga asoslangan faoliyat yuritishiga imkon beradi. Shunga qaramay, AQSh Kongressi har yili AQSh Ta'lim departamenti (U.S. Department of Education) orqali davlat budjetidan turli federal ta'lim dasturlarini, jumladan, talabalar uchun moliyaviy yordam ko'rsatish tizimlarini moliyalashtiradi. Pell Grant, Stafford Loans, Federal Work-Study kabi dasturlar aynan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bu tizimda ehtiyoj asosida differensial yondashuv asosiy mezon hisoblanadi.

Keyingi navbatda Rossiya Federatsiyasida oliy ta'limga kirish huquqi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan bo'lib, Konstitutsiyaning 43-moddasida har bir fuqaroning bepul ta'lim olish huquqi, raqobat asosida qabul qilinish va davlat tomonidan imtiyozlar orqali qo'llab-quvvatlanishi belgilangan [10].

Ushbu konstitutsiyaviy kafolat 2012-yil 29-dekabrda qabul qilingan 273-FZ-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Federal qonun orqali normativ jihatdan rivojlantirilgan bo'lib, unda ijtimoiy imtiyozlarning subyektlari, shakllari va tartibi belgilab qo'yilgan [11].

Qonunga muvofiq, ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar (yetim bolalar, nogironlar, harbiylar farzandlari, ko'p farzandli oilalar vakillari) uchun oliy o'quv yurtlarida ajratiladigan davlat grantlarining kamida 10 foizi maxsus kvota sifatida taqdim etiladi. Shuningdek, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan olimpiadalar va sport musobaqalari g'oliblari oliy ta'limga imtihonsiz yoki imtiyozli shartlarda qabul qilinadi, bu esa iqtidorli yoshlarni rag'batlantirishga xizmat qiladi [12].

Bundan tashqari, Rossiyada "maqsadli ta'lim shartnomasi" amaliyoti mavjud bo'lib, bu orqali talabalar davlat yoki xususiy tashkilotlar hisobidan o'qitiladi va bitirgach kamida uch yil ishlab berish majburiyatini oladi. Mazkur tizim ta'lim jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bitiruvchilarning bandligini ta'minlash va kadrlar tayyorlash siyosatini o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi qiyosiy-huquqiy tahlillar asosida shuni ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim sohasida ijtimoiy imtiyozlarni joriy etish – bu nafaqat ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash vositasi, balki konstitutsiyaviy kafolatlarning real hayotdagi namoyonidir. Germaniya modelida ehtiyojga asoslangan markazlashgan moliyaviy yordam tizimi ijtimoiy farovonlikni kuchaytirishga xizmat qilsa, Rossiya tajribasi imtiyozlarning qonuniy asosda keng doirada belgilanib, bandlik siyosati bilan uzviy bog'langanini ko'rsatadi. AQSh va Buyuk Britaniyada esa bevosita qonuniy imtiyozlar mavjud bo'lmasa-da, ehtiyoj asosida moliyaviy yordam mexanizmlari orqali teng imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston tajribasida oliy ta'limga kirishdagi ijtimoiy imtiyozlar huquqiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, ular samaradorligi, raqamlashtirilganligi, adolatli baholanishi va shaffofligi jihatidan xorijiy ilg'or tajribalarga nisbatan hali yetarlicha takomillashmagan.

Shu bois, Germaniya, Rossiya, AQSh kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida quyidagi yo'nalishlar asosida tizimli yondashuvni shakllantirish zarur:

Avvalo, ijtimoiy imtiyozlarning tarqoq normativ hujjatlar asosida emas, balki maxsus, kompleks huquqiy hujjat — "Oliy ta'limda ijtimoiy imtiyozlar to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv imtiyozlarning aniqligi, barqarorligi va huquqiy ishonchliligini ta'minlaydi. Germaniya va Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat tamoyili faqat normativ aniqlik mavjud bo'lgan sharoitda amaliy natija beradi.

Bundan tashqari, Germaniyada muvaffaqiyatli joriy etilgan BAföG modeli asosida O'zbekistonda ham kam ta'minlangan va ehtiyojmand talabalar uchun ehtiyojga asoslangan grant-kredit tizimi yaratilishi maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan mexanizmga ko'ra, moliyaviy yordamning bir qismi – qaytarilmas grant, ikkinchi qismi – foizsiz, kechiktirilgan kredit ko'rinishida ajratilishi ijtimoiy tenglikni amalda ta'minlashda samarali vosita bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasidan kelib chiqib, maqsadli ta'lim shartnomalari institutini qonuniylashtirish va uni tizimli asosda kengaytirish zarur. Bu orqali oliy ta'lim muassasalari, davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida uzviy hamkorlik o'rnatilib, ta'lim jarayoni mehnat bozori ehtiyojlariga bevosita bog'lanadi. Ayniqsa, pedagogika, tibbiyot, axborot texnologiyalari va muhandislik kabi strategik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashda ushbu mexanizm alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni inobatga olgan holda, imtiyozlarni raqamlashtirish asosida boshqarish tizimini joriy etish dolzarbdir. Maxsus raqamli platforma orqali abituriyentlar o'z ijtimoiy holatini aniqlab, imtiyozga ega-emasligini avtomatik tarzda bilish imkoniyatiga ega bo'lishi, inson omiliga bog'liq subyektivlikni kamaytiradi. Bu esa tizimning ochiqqligi, shaffofligi va fuqarolar ishonchini oshiradi.

Bundan tashqari, AQShda mavjud ehtiyojga yo'naltirilgan differensial moliyaviy yordam tajribasidan kelib chiqib, ijtimoiy imtiyozlar yagona shaklda emas, balki ehtiyoj darajasiga qarab differensial yondashuv asosida belgilanishi lozim. Bu yondashuvda maxsus indekslar (oilalaromadi, yashash joyi, nogironlik darajasi, ijtimoiy holat) asosida baholovchi mezonlar ishlab chiqilishi va adolatli taqsimotni ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Buyuk Britaniya, AQSH Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, ijtimoiy imtiyozlar tizimi faqatgina ijtimoiy holatga tayangan holda emas, balki bilim, salohiyat va individual qobiliyat mezonlari bilan uyg'unlashgan holda shakllanishi lozim. Bunday yondashuv, bir tomondan, ijtimoiy tenglik va inkluzivlikni ta'minlasa, boshqa tomondan, oliy ta'limdagi raqobatbardoshlik va sifat mezonlariga putur yetkazmasdan rivojlanish imkonini beradi. Bu muvozanat ta'lim tizimida ijtimoiy adolat bilan akademik mukammallik o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni e'tiborga olish zaruriyatini taqozo etadi.

Umuman olganda, xorijiy ilg'or tajribalar va O'zbekistonning milliy ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan ushbu takliflar nafaqat ijtimoiy imtiyozlar institutini huquqiy jihatdan mustahkamlashga, balki oliy ta'limda adolat, ochiqlik va samaradorlikni ta'minlovchi barqaror boshqaruv mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali oliy ta'lim sohasi nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarning amaliy kafolati, balki ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalining taraqqiy etgan ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

REFERENCES

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023// <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Konstitutsiyaviy huquq: darslik/ Mualliflar jamoasi.-T .:TDYU nashriyoti, 2024. 268 b.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 23.09.2020 y. <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. Федеральный закон Российской Федерации от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ "Об образовании в Российской Федерации" // КонсультантПлюс. – URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_140174/
5. Bundesausbildungsförderungsgesetz (BAföG) – Federal Training Assistance Act. Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF). URL: <https://www.bmbf.de/bmbf/en/education/bafoeg.html>
6. Мамажонов И., Маматов Р. Государственная система образования Германии // Экономика и инновационные технологии. – 2017. – №6. – С. 241–249.
7. United Kingdom Department for Education. "Access and Participation Plans in Higher Education". URL: <https://www.officeforstudents.org.uk/>